

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI METODIKASI KAFEDRASI

5141600-“Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” yo‘nalishi

4-kurs 403 - guruh talabasi

XUDOYQULOVA DILNOZAning

“Har xil janrdagi asarlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

k.oq.Sh.Rahmatullayeva.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. T.Rasulov

“ _____ ” _____ 2012-yil

Qarshi – 2012-yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Ertak va masal janrini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	9
1.1 Ertak matnini o‘qish darsida interfaol ta’lim	16
1.2 Masalni o‘qish darsini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish.....	31
II BOB. Boshlang‘ich ta’limda maxsus folklor janrlarni o‘rganish.....	39
2.1 Maqol o‘qitish darsini tashkil etish.....	39
2.2 Topishmoq va tez aytishlarni o‘rganish yo‘llari.....	48
Xulosa	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi. Unda “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakalari raqobatdosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi”-deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta‘minlash” umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan tadqiqotchi olimlarimiz zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish borasida bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirayotgani hech kimga sir emas.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarning kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta’sir ko‘rsatayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijobiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda ongini o‘stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda, nutqni boyitishda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshirishda qisqasi ta’lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muhim rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimini kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini bajarish mavjud o‘qitish usullarini ta’lim texnologiyalari asosida qayta tashkil etish, sinfda, darsda, darsdan tashqarida, o‘quv –tarbiya ishlarini bajarishda, o‘qish darslarini tashkil

etishda pedagogik jarayonning natijasini kafolatlaydigan qilib darsni loyihalash va tashkil etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi milliy rivojlanishning istiqbolli rejasini tuzib, uni amalga oshirishning amaliy asosini ta'lim-tarbiya sohasi deb belgilab oldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997-yil, 29-avgust) da qabul qilingan hamda ayni davrda amaliyotga keng miqyosda tadbiq etilayotgan "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" buning dalili bo'la oladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amaliyotga tatbiq etishning uchinchi yakuniy bosqichi davom etmoqda. Mazkur jarayon, 2005 va undan keyingi yillarda "... ta'lim muassasalarining resurs kadrlar va axborot ba'zalarini yanada mustahkamlash, o'quv tarbiya jarayonini yangi o'quv uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash rejalashtirilgan. Ayni paytda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, bajariladigan asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

Bu borada bir qator tadqiqotchi olimlar samarali faoliyat olib borganligini alohida ta'kidlash mumkin. Masalan, Malla Ochilov, B.Ziyomhammadov, M. Tojiyev, T. G'afforova, N. Saidahmedov va boshqalar zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida o'z fikr-mulohazalarini keng ko'lamda bayon etishga harakat qilishgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari

- o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etish;
- har xil janrdagi asarlar matni ustida ishlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llari va usullarini ishlab chiqish;
- har xil janrdagi matnlarni o'qitishda modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanishga doir amaliy ishlarni ko'rsatib berish;
- darslikdagi har xil janrdagi asar matnida qo'llangan tasviriy-ifodaviy vositalarni o'rganish.

Tadqiqotning o'rganish ob'yekti.

“Har xil janrdagi asarlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusi alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan. Biz ishimizning o‘rganish ob‘yektini sifatida 1-4 sinf “O‘qish” darsligini tanladik. 1-4-sinf “O‘qish” darsligida berilgan ertak, masal, doston, maqol, topishmoq, latifa va tez aytishlarni o‘qib-o‘rganib, bu asarlarni o‘qitishning yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish usullarini ishlab chiqdik.

O‘quvchilarni har tomonlama yuksak ma‘naviyatli insonlar qilib tarbiyalash o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Bu avvalo, ular yashab turgan davlat va jamiyat talablariga mos tarzda shakllanib borishi, ta‘limning bosh bosqichi hisoblangan boshlang‘ich sinflardagi ta‘lim-tarbiya orqali qo‘lga kiritiladi. Ishimiz Barkamol avlodni yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Ta‘lim tizimidagi **Tadqiqotning metodlari.** h ta‘lim oldiga qo‘yilgan talablar ona tili o‘qitish **Tadqiqotning metodlari.** uvchi, differentsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo‘naltirish, izlanish, muammoli o‘qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda o‘qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o‘quvchining faolligini oshirishda yordam beradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o‘qitish, analiz sintez, induksiya va diduksiya metodlaridan foydalandik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- o‘qish darslarini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llari ishlab chiqildi va talqin qilindi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik asosi o‘rganib chiqildi.
- darslikdagi ertak, masal, maqol, topishmoq, latifa, tez aytish kabi matnlarini o‘qitish texnologiyasi o‘rganildi;
- 1-4-sinf ”O‘qish kitobi” dagi matnlar asosida dars ishlanmalari tuzildi.

Tadqiqotning ahamiyati.

Darslikdagi ayrim matnlarni lisoniy tahlil etish va darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash, fikrni ravon bayon etishga o‘rgatish, matnlardagi leksemalar, tasviriy vositalarni anglashga, ularni nutqda erkin qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirishga o‘rgatish.

O'quvchilarda badiiy adabiyot manbalari orqali vatanga muhabbat, xalqqa mehr, tilga hurmat ruhi tarbiyalanadi. O'quvchilarning muloqat madaniyati shakllanadi, nutqi boyiydi, fikrlash doirasi kengayadi.

Tadqiqotning natijalari.

- maktabda boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishda;
- pedagogika kolleji talabalariga ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida;
- ochiq darslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi Qarshi DU O'zbek tili va adabiyoti metodikasi kafedrasida yig'ilishida muhokama etilib, universitet ilmiy kengashida tasdiqlangan.

Tadqiqot matni Qarshi DU O'zbek tili va adabiyoti metodikasi kafedrasida professor-o'qituvchilarining yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi.

Ishning amaliy hajmi 67 sahifani tashkil etadi. Ish kirish, 2 bob, 4 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I BOB. Ertak va masal janrini o'qitishda yangi pedagogik

texnologiyadan foydalanish

Ta'lim tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar ona tili o'qitishda pedagogik texnologiyaning rivojlantiruvchi, differentsiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda ona tili darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalandik. Mazkur metodlarga mos metodik ish usullarini ishlab chiqdik. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta'limiy o'yin, turli ko'rinishdagi yozma ishlar, o'z bilimini mustaqil tekshirish kabi usullarda uyushtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Har bir darsning mazmuni va g'oyasidan kelib chiqqan holda dars maqsadi va metodlarini belgiladik.

O'qish darslarida turli janrdagi asarlarni o'rganishda ham o'quvchilarning badiiy asarni chuqur o'zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta'minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratildi. O'qish darslarida izohli o'qish, ijodiy o'qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin.

Izohli o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo'lgan, ularning asta-sekin o'sishini ta'minlaydigan metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi.

Izohli o'qish ongli, tushunib, o'ylab o'qishga o'rgatadi, u o'qilayotgan asar matni ustida o'ylashga majbur qiladi, yozuvchi ifoda etayotgan voqea-hodisalarni his etishni, asar mazmunini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Izohli o'qishning tamoyillari, o'qishni hayot bilan bog'lab tashkil etishni, o'qishning

ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayot tajribasiga, taassurotlariga asoslanishni, o'qishni ko'rgazmali tashkil etishni taqozo etadi. Izohli o'qish o'quvchiga bilim berishdan tashqari ularni tarbiyalaydi, o'qish malakalarini takomillashtiradi. Izohli o'qish darslarida o'qitilayotgan asar mazmunini yoritish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish usullaridan hisoblanadi. Izohli o'qish tarixiy mavzudagi asarlarni o'rganishda, asardagi badiiy til vositalarining vazifalari va ma'nolarini ochishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy o'qish metodiga ham e'ibor qaratildi. Ijodiy o'qish asar o'qib berilgach, o'quvchilarda hosil bo'lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda, reja tuzishda, qayta hikoyalashda, asar mazmuniga mos rasmlar chizishda, asar yuzasidan ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o'quvchilarni faollashtiradi.

Izlanish metodidan ham foydalaniladi. Bu asar syujeti yuzasidan o'quvchilarga savol tuzdirishda, qahramonlarga tasvir berishda o'z ifodasini topagi.

Dars davomida **reproduktiv metoddan** ham foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki o'qish darslarida o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab ko'rsatadi, uni sarlavha shakliga keltiradi, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so'z, ibora, ifodalarni aniqlab ko'rsatadi, ularga yuklatilgan ma'noni o'quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini bajaradi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining yo'llovchi savollari yordamida bu vazifalarni o'zlari bajaradilar.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Hozirgi ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy vositalardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan biri bilimlarni sistemallashtirish, so'zlar va ularning grammatik formulasini aniqlash, savodli yozuv ko'nikmasini hosil qilishdir. Bolalarning savodxon bo'lishiga erishish uchun birinchidan o'quvchilar xotirasida so'zlarning yorqin tasvirini mustahkamlash, ikkinchidan so'z tarkibi va gap bo'laklarini hamda tez farqlash qobiliyatini o'stirish kerak. Bu vazifa morfologiyani o'rganish jarayonida amalga oshiriladi.

Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Pedagogik texnologiyani qo'llash natijasida o'qituvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, sog'lom muloqot, munozara, baxs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda. Texnologiyada interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasiga ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgatlik ko'nikmasini talab qiladi. Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda qo'yidagi jadvalni keltiramiz:

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar.

	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi.
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish. Himoyalashga o'rgatish
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat topshiriqlar berish	O'qituvchilarni mustaqil ishlashi, yakuniy xulosalarni belgilab berish
4	Darsda tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekti va didaktik vositalarni tayyorlash	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur narsalarni tayyorlash
5	O'qituvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarish	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish
6	O'qituvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish	O'qituvchi bergan topshiriq bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikrini solishtirish va

			xulosalarga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi o'zlashtirishni nazorat qilishda sarflanadi	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchilarni mustaqil topshiriqlarni bajartirishiga, fikr almashishi, mushohada qilishi va hikoyalashida sarflanadi
8	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi
9	O'qituvchilar talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol o'quvchilar diqqatini jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol muloqot shakllari	O'qituvchi ham o'quvchilar ham har tomonlama faollik ham ijodkorlik shakllari
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muzokara, muhokama, bahs mulohaza, tahlil, mushohada va b.	Muloqot, mutolaa mushohada, muhokama, munozara, mulohaza, tahlil va b.
11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, konsultatsiya va b	Ma'ruza guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, tahlil va boshqalar
12	Kutiladigan natijalar	Mavzu bo'yicha o'quvchilarni bilim, ko'nikma malakalarini oshirishlari	Mavzu bo'yicha o'quvchilarni o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilinadi.

Hozirgi ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot munozara bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu usullar o'quvchilarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan komil insonlar bo'lib yetishishlariga xizmat qilgan. Interfaol ta'lim usuli har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'qituvchi o'z motivlari va intellektual o'zlashtiriladigan mashg'ulot olib borishni ta'minlaydi va bu darajaga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi. Interfaol mashg'ulotlarni amalga qo'llash boyicha ayrim tajribalarni o'rganish bo'yicha bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy pedagogik ilmiy metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga ta'lim vositalarida bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarga tutishi lozim.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga moslashgan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual va xarakterli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarga aqliy, jismoniy aqliy, axloqiy, badiiy, estetik mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ta'qiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq-odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga mavzuli konstruktiv va didaktik o'yinlarga ajratadi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatining o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishiga asos bo'ladi.

O'quvchilar bilimini mustahkamlashda ertak va masal matnini o'rganish darslarida o'yinlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

1.1. Ertak matnini o‘qish darsida interfaol ta’lim

Boshlang‘ich sinflarda oqish darslarida o‘quvchilarning nutqini oshirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan hikoyalardir. Maktab tajribasida to‘liq qisqartirib tahlalab va qayta ijodiy hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ertak matnini qayta hikoyalash ancha oson, boshqa janrdagi asarlarni hikoyalash esa nisbatan qiyinroqdir.

Xalq og‘zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirliigi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi.

Ertakning o‘tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan qiyonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, „Halollik“ ertagida (3-sinf) asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, „Hiylagarning jazosi“ ertagida esa (4-sinf) soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning hatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)“, „Nima uchun?“, „... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)“, „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. „Bo'ringning tabib bo'lgani haqida ertak“ (Anvar Obidjon), „Ko'zacha bilan tulki“ kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar matnning mazmunini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning hatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Masalan, „Odobli bo'lish osonmi?“

(A. Obidjon) ertagining mazmunini o'zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:.

1. Sichqonchanning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchanning „Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?“ degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so'zlab bering.

2. Sichqonchanning mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o'rinni topib o'qing. Nima uchun „Shum Baroq“ ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani „Kam bo'lma“ deb duo qiladi? Shu o'rinni topib o'qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o'qing“, „Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting“, „Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?“ kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „*Davlat*“, „*Ilm afzal*“, „*Hiylagarning jazosi*“, „*Hunarsiz kishi o'limga yaqin*“ kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim hatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

„*Davlat*“ ertagi (4-sinf) oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasavur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. „*Davlat*“ ertagi matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilar „*Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?*“, „*Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?*“ kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina etnas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, „Yo'lbars, Tulki va Bo'ri“ ertagida „Tog' echkisi siz **ulug'imizniki** bo'lsin“, „Quyvon siz **podshohimizning** ertalabki **nonushtangiz** bo'lsin“, „Kiyik kechqurungi **taomingiz**, qo'y kunduzgi **xo'ragingiz** bo'lsin“ kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, „*Rostgo'y bola*“ (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Bu ertakning yangi pedagogik texnologiya asosida o'tish namunasini quyida keltiramiz:

Mavzu: O'zbek xalq ertagi «Rostgo'y bola»

Maqsad: To'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.

O'quvchilar shaxsida to'g'riso'zlik, rostgo'ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Darsning shiori:

Biz nimaiki qilmaylik,

Barchasi zarur, kerak.

Bilim egallash uchun

Tinimsiz o'qish kerak.

Darsning borishi:

1 - modul.

Uyga vazifani tekshirish.

"Maymun va duradgor" haqidagi ertak. Xattaxta oldiga Ikki o'quvchi chaqiriladi va ular galma galdan ertakni o'qib, mazmunini so'zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

2 - modul. Quvnoq daqiqa.

O'qituvchi: Yaxshi o'qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

«Choyni sovit» «Gulni hidla» «Sharni shishir» «Changni hayda».

2) Ovoz mashqi; tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

-Quyidagi she'rni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e'tibor qiling: To'g'ri so'z bola. H.H.Niyoziy. (Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,

To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi biri: "Tanga berurman sanga

So'zla bir og'izgina yolg'on manga"

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:

"so'zlang ako, qomatingizga qarab.

Bu so'zingiz aslida yolg'on erur

Tangaga yolg'onni kim olg'on erur".

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

b	r	o	s	t	g	o'	y	b	r
o	o	b	o	l	a	ya	o'	o	o
l	s	yo	l	g'	o	n	r	l	s
a	t	a	n	g	a	k	k	a	t
r	g	k	i	sh	i	a	k	o	g
o	o'	m	a	k	t	a	b	yu	o'
s	y	s	o'	z	i	ng	i	z	y
t	o	g'	i	z	g	i	n	a	a
g	l	a	r	o	s	t	g	o'	y
o'	y	s	a	n	g	a	k	i	m

Bu jadvalda rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim so'zlari borligini o'quvchilar topadilar.

3 - modul.

Skanerdagi so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og'izgina yolg'on, rostgo'y bola, yolg'onchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu so'zlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar o'zlaricha tuzgan ertaklarini so'zlab beradilar.

Bugungi o'tadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Bo'lmasa o'qituvchi ertak nomini aytadi: "Rostgo'y bola"). Kelinglar endi ertakni eshitib ko'ramiz. Unda ba'zi notanish so'zlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qo'yilgan bo'lishi ham mumkin)

Podshoh - yurtni boshqaruvchi kishi.

Vazir - podshohning yordamchisi. Tadbir - o'ylab qilingan ish. Xomush - xafa.

4-modul.

Ertakni o'qituvchi tomonidan o'qish, ma'lum bir qismini o'quvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolg'on gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (O'quvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? O'qituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida o'quvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, "Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir"... qolganini o'quvchilar davom ettiradilar).

5 -modul. Mustaqil o'qish.

Usul: o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga ovoz chiqarib o‘qiy boshlaydi (o‘quvchilar faqat ko‘z bilan o‘qiydilar), o‘qituvchi jim bo‘lib, o‘qishni ichida davom ettiradi, o‘quvchilar esa ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin yana o‘qituvchi ovoz chiqarib o‘qiydi, o‘quvchilar ko‘z bilan o‘qiydilar va shunday o‘qish ertak oxirigacha davom etadi

O‘qish oldidan topshiriq: xattaxtada yozilgan so‘zlarni ertakda berilganday izchillikda, so‘zlar qo‘shib yozing:

- Qadimda.
- podshoh bo‘lgan.
- Xomush bo‘lib yurgan.
- Vazirning maslahati.
- gul urug‘i,
- farzand qilib olmoqchi.
- vaqt o‘tibdi.
- shahar aylanibdi.
- gullarni ko‘rib o‘taveribdi.
- ko‘zi tushibdi.
- gullar qani?
- qaynattirgan.

6 - modul.

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

- Ertak qahramonlari kimlar?

- Quyidagi so‘zlar kim haqida yozilgan: xomush. farzandi yo‘q, gul urug‘i tarqattiribdi. (podshoh).

-Yaxshi farzand topish yo‘lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)

- Qanday yo‘l bilan rostgo‘y, aqli bola tanlandi?

- Keyin nima bo‘ldi?

- podshoh gul urug‘ini nima qilgan ekan?

- Quyidagi hikmatli so‘zlardan qaysi biri ertak mazmunini to‘ldiradi?

1.Boshingga qilich kelsada rost gapir.

2.Yolg‘onning umri qisqa.

3.Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.

4.To‘g‘rilik baxt keltirar.

(To‘g‘ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo‘ldi.).

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o'quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo'lishi mumkin) kabi guruhlariga bo'linib markazlarda ishlaydilar.

O'qish markazi: «kitoblar olami». I guruh - o'quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko'rsatilgan qismni o'qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo'linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga mos keladigan rangdagi qog'ozlarga yopishtiriladi. O'quvchilar bo'lingan matnni tiklab, to'liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh - tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo'yish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir o'quvchining daftarida qahramonlar hislatlariga tegishli so'zlar yozilgan: farzandi yo'q, xomush, ko'p bolalarni ko'rdi, gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o'qib, kimga tegishligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo'qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo'q). O'zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo'ladi: Xomush podshoh. Aqlli vazir. Rostgo'y bola. Yolg'onchi bolalar. Gulsiz tuvak. Prezedentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o'z ishlarining yakuni haqida so'zlaydilar.

O'qituvchi:

Qarang xattaxtamizda

Hosil bo'ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi.(bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g'oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

- Bu darsdan qanday yangilik o'rgandingiz?
- Sizga nima yoqdi?
- Nima sizga yoqmadi, siz qanday bo'lishini xohlar edingiz?

Demak dars yakunida ertak g'oyasiga mos shunday xulosaga kelinadi: „Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir". O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

So'z ma'nolari ustida ishlashda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos bo'lgan usullardan yana biri rasmdan foydalanishdir. Masalan, 2-sinfda „*Ko'ngilchan o'tinchi*" ertagida *qayin, eman, shumtol, zarang, zirk, tog'terak, qarag'ay, qayrag'och, chinor* kabi daraxt nomlari keltirilgan. Ularni bola ko'z oldiga keltira olmaydi. Ertakni o'qishdan oldin shu daraxt rasmlarini ko'rsatib, uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlash va nomlarini aytish lozim. Shundan so'ng didaktik o'yin o'tkaziladi. Bunda daraxt rasmlari bolalarga bo'lib beriladi. Har bir o'quvchi o'ziga berilgan rasmdagi daraxtning nomini aytishi va ertakdagi shu daraxtning so'zini o'z so'zlari bilan aytib berishi kerak bo'ladi.

Shu ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan *shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo* so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llangan badiiy vositalar. jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:


- Ertak bilan tanishtirish;
- O'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- O'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.
- Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
- Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);
- Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
- Ertakni so'zlab berish;
- Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
- Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
- Vazifani tekshirish va yakunlash;
- Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

ERTAK O'TISH DARSINI NAMUNASI

Mavzu. Kumush qish.

O'quv materiali. Rangin qorlar (Olloyor).

Darsning maqsadi:



1. O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o'rgatish.
3. O'quvchilarning mustaqil frklash qobiliyatlarini o'stirish, xotirasini mustahkamlash.
4. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, o'quvchilar lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Dars metodi: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: qog'oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag'batlantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O'qituvchi turli usullar bilan o'quvchilarni guruhlariga ajratadi. Sinfdagi partalar doira shaklida qo'yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linib o'tiradilar. O'qituvchi guruhlar bilimi teng bo'lishi uchun qizil, ko'k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi

mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Buning uchun o'quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

— *Topishmoqning javobini toping: Elakdan un elandi*

Supra unga belandi. (qor)

— Qor qaysi faslda yog'adi?

— O'ylang, bugun o'rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan?

Xattaxtaga bo'lim nomi — „Kumush qish" yoziladi. So'ng guruhga qish fasli bilan bog'liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

1-guruh „Qorparcha", 2-guruh „Ayozbobo", 3-guruh „Qorbobo", 4-guruh „Sumalak", 5-guruh „Qish" deb nomlanishi mumkin. Har bir guruh a'zolari o'zlariga sardor saylaydi.

Darsning borishi

I. Chaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti.

Bunda har bir guruh o'z nomining ma'nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko'rsatishi ham mumkin.

1-guruh - „Qorparcha": Men qish faslida dunyoga kelganman. Qir-adir, tog'u tosh, dala-dashtda uchib, o'ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab bilan o'rayman. Men yoqqanda bolalar, hatto kattalar ham qorbo'ron o'ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh — „Ayozbobo": Men issiq havoni sovutaman. Yerlarni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo'ladi. Bolalar yaxmalakda chang'ida, chanada va konki uchadi. Tarnovlarda sumalaklar paydo bo'ladi.

3-guruh -, Qorbobo ": Men qish faslida bolalarning eng sevimli bo-bosiman. Uzoq-uzoq o'lkalardgan ularga yangi yil bayrami sovg'alarini, qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-qo'shiqlari, o'yin-kulgilari jaranglagan bayramni birga nishonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg'irin, sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag'ishlayman. Hammangizni yangi qutlug' yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh - „Sumalak": Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo'g'otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o'yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo'shilib o'ynay olmaganimdan ko'zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. Shu ko'z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo'laman.

5-guruh - „Qish": Yuqoridagi so'zga chiqqanlarning barchasi mening dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari mening qo'ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni, bayramlarni taqsimlab berganman.

8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 31-dekabrda Yangi yil bayrami nishonlanadi. 14-yanvar Harbiylar kuni bayram qilinadi.

9-fevralda ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiyning, 14-fevralda Mirzo Boburning tavallud kuni nishonlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag'batlantiradi. Shu tarzda asarni o'qishga tayyorgarlik yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda „Rangin qorlar“ (Olloyor) ertagi (o'qituvchi qismlarga bo'lib kelgan bo'ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladi. „Ifodali o'qish“ musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o'qigan o'quvchi aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng guruhlariga asar matni ichda o'qishga topshiriladi. Guruh o'quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

- Har bir guruh o'z qismini ichida o'qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag'batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O'quvchilar o'zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

— *Qadimda qorbo'ron qanday qorlar bilan o'ynalgan? Nima uchun?*

— *Bo'yoq bozori qancha yilda bir bo'lar ekan?*

— *Nega qorlar oq rangda yog'ar ekan?*

— *Bahoroy qaysi bo'yoqni xarid qilibdi?*

— *Kuz kelganda qozonlarda qaysi boyoqlar bor edi?*

— *Qish kelganda qozonda qaysi bo'yoq qolgan edi?*

— *Yoz uyqudan uyg'onib nimani o'ylab ketibdi?*

— *Yoz qaysi bo'yoqlarni olganini o'ylab toping.*

— *Kuz qaysi bo'yoqlarni o'chirib, uning o'rniga qaysi bo'yoqlarni surtib chiqdi?*

— *Qish o'z zahrini nimalarga sohadigan bo'lib qolibdi?*

2.Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo'yiladi.

3.O'qituvchi „Kumush qish“ va o'qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlariga tarqatadi.

4.Qish fasli bilan bog'liq maqol va topishmoqlar aytiladi:

Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka) Qishda yoping'ichingni qo'yma, Yoz o'zing bilasan. (Maqol)

5.O'qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlarga beriladi.

1-guruh uchun.

— Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?

— „Qiyomiga kelib“ birikmasining ma'nosini izohlab bering (ayni me'yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).

2-gurufa uchun.

— *Falak, libos so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?* (falak - osmon gumbazi, osmon, ko'k; libos - kiyim, ust-bosh)

— *Bahoroyning gullari nomini sanab bering.*

3-guruh uchun.

— „Shitob“ so'zining ma'nosini izohlang (harakatning bajarilishidagi tezlik)

— Saraton qaysi payt ekanini ayting.

4-guruh uchun.

— Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.

— Za'far, zarg'aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko'rsating. (zarg'aldoq - to'q sariq rang, za'far - sap-sariq, somon rang).

5-guruh uchun.

— Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?

— Ertakda badiiy vositalardan nima ko'proq qoilanilgan? (jonlantirish)

Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda quyidagicha savollar beriladi:

— Dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

— Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

— Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz?

So'ngra o'quvchilarning umumiy ballari e'lon qilinadi.

Uyga vazifa: ertak matnini ifodali qilib o'qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

1.2. Masalni o'qish darsini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish

Masal — axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar-hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa-ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa sujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna boia oladi.

„Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan „yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, „Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan".

Mashhur masalnavis Gulxaniyning „Toshbaqa bilan Chayon", „Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o'rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi

e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi.

3-sinf „O'qish kitobi"dan o'rin olgan „Qaysar buzoqcha" (O.Qo'ch-qorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Yaylovda bir buzoqcha

Arazlabdi to'dadan

Ketib qolib uzoqqa,

Adashibdi podadan.

Yakka o'zi o'tlarkan,

Borib yaylov to'riga.

Buzoq shunda to'satdan,

Duch kelibdi bo'riga.

Ma'rasa ham qancha u,

Bilishmabdi do'stlari.

Maza qilib och bo'ri,

O'yib yebdi ko'zlarin.

Bobolar bu haqda der:

“Bo'linganni bo'ri yer”.

Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya'ni otabobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan „Bo'linganni bo'ri yer" hikmatida o'z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

„*Chumoli va Tiptarikan*“ masali esa nasriy turga mansub bo'lib, unda Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tiptarikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining hatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. O'quvchi masalni o'rganish orqali quyidagi xulosaga keladi:

Halol boylik qilar sheryurak,

O'g'irlik mol qilar jonsarak.

Masalni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Masal nima haqida boradi?
2. Badnafs so‘zini qanday tushundingiz? Uning o‘rnida yana qanday so‘z ishlatish mumkin?
3. Masaldagi maqolning ma’nosini ayting?

O‘quvchilar bu savollarga javob berish orqali matn mazmunini to‘liq o‘zlashtiradilar, xulosa chiqarishga o‘rganadilar.

“O‘jar Toshbaqa” masalida Toshbaqaning injiqliklari Gapga kirmasligi, onasini ranjitishlari ifoda etilgan. Masalni o‘qishda quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilish mumkin:

Masalda nima haqida gap boradi?

Yosh toshbaqa nima deb janjal qildi?

Nima uchun yosh toshbaqa onasidan uzr so‘radi?

Masal mazmuniga mos qanday maqol va topishmoqlar bilasiz?

Shuningdek, matndan ona nasihati berilgan o‘rinlarni topib o‘qitirish ham o‘quvchilarning matn mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga va masaldan to‘g‘ri xulosa chiqarishlarida yaxshi samara beradi. Uyg‘a vazifa masal mazmuniga mos rasm chizish topshiriladi.

Bu masallarning qahramonlarining barchasi hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo‘shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to‘dasidan ajralib, bo‘riga duch keladi, ya‘ni ko‘ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

„Chumoli va Tipratikan“ masalidagi majoziy qahramonlar ham aslida jamiyatimiz a‘zolaridir. Chumoli hayotdagi halol, pok, to‘g‘riso‘z insonlar bo‘lsa, tipratikan o‘g‘ri, qallob birovning ustidan kuladigan kishilar timsolidir.

„O‘jar Toshbaqa“ masalidagi Toshbaqa hayotdagi o‘jar, qaysar, o‘z bilganidan qolmaydigan, ko‘ngli tusaganini qiladiganlar timsolidir.

2-sinf „O‘qish kitobi“da berilgan „O‘roq va Kombayn“ masalida o‘roq va kombayn asar qahramonlari qilib olingan. Ularning munozarasi orqali texnikaning afzalligi: kam vaqt sarflab, samarali natijaga erishish mumkinligi hamda ularning ahil bo‘lib, birgalikda mehnatga bel bog‘lashlari kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Oddiy predmetlar tilga kiradi. Insonlar tomonidan

aytiladigan texnika va ish qurollari haqidagi gap-so'zlar bevosita predmetlar tilidan beriladi.

Masalan, Kombayn O'roqqa yaqinlashib:

-Ha, O'roq buva, nima bo'ldi sizga?-dedi.

-Hech narsa, shunchaki o'zim, seni ko'rib, avvalgi vaqtlar esimga tushdi. Mana shu yerdagi bug'doyni necha kunlar davomida zo'rg'a o'rardim. O'raverib-o'raverib qaddim yoydek bukilib ketgan,-deydi

Ko'rinadiki, o'quvchi oddiy ish quroli o'rnini texnika egallaganini his qiladi va shunday xulosaga keladi:

Ahillik bor joyda qut-baraka bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganayotganda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o'xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masallarda yashiringan o'tkir kinoya, voqealarning tez-tez o'rin almashinib turishi uni bir maromda o'qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o'qishga yetarli malaka hosil qilmagan o'quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Masai tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o'quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so'z bilan tasvirlash, ba'zilariga o'qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo'lib o'qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o'ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o'qishga tayyorlanishda uning sujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur.

4-sinf „O'qish kitobi“da berilgan Sh. Sa'dullaning „Laqma it“ masalida it markaziy timsol sanaladi. Mushuk, sigir, xo'roz, tovuq va kurkalar timsolini it birlashtirib turadi. Shuning o'ziyoq it xarakterini ochish uchun uning atrofidagi timsollarning xarakter xususiyatini bilishni talab etadi.

Mushukning it haqidagi so'zlarini matndan toptirib o'qitish itning xususiyatini ochib beradi:

Ajab bo'ldi uy qurmading.

O'z va'dangda sen turmading.

Yozi bilan laqillading.

Meni ko'rsang akillading.

Sigirning it haqidagi quyidagi so'zlarini ham matndan topib o'qitish orqali itning boshqa xususiyati ochiladi:

— Menga bundoq hiyla qilma

Sigirlarni axmoq bilma....

Uyda yotding oyoq cho'zib

Sog'in sutni hadeb buzib.

So'ng o'quvchilarga itga xos xususiyatlarni ochuvchi so'z va iboralarni toptirib aytiriladi. Shu tariqa o'quvchilar o'qituvchi yordamida itga tavsif beradilar. So'ng boshqa timsollar ustida ishlanadi. Bunda taqqoslash usulidan foydalaniladi. Mushukning yaxshi xislatlari sanaladi. Bu kabi tavsiflar sigir, xo'roz, tovuq, kurkalarga ham beriladi. Qahramonlarga tavsif berish matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Yozuvchi foydalangan til vositasida o'quvchilar qahramonlarga tavsif berishga o'iganadilar, ularning tili ham yangi so'zlar bilan boyiydi. O'quvchilarni tavsif berishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi qahramonni xarakterlovchi so'z, iboralarni tavsiya qiladi. Ular ichiga masaldagi timsollarga xos bo'lmagan xususiyatlarni ifodalovchi so'z, iboralar kiritib qo'yiladi. O'quvchi ular ichidan mosini tanlab olish jarayonida mantiqan fikrlaydi. Bu so'z va iboralar esa bolalar nutqiga ko'chadi.

4-sinf „O'qish kitobi"da berilgan „Baqa bilan Taqa" (Aziz Abdurazzoq) masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o'ziga mos bo'lmagan, o'ziga to'g'ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o'z aytganidan qaytmaydigan, o'jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o'zining borligini bildirib yashashni istaydi. U taqachining „Taqani o'ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo'lasan... Sen taqa bilan yo'rg'alay olmaysan. Yo'rg'alashni ham otga chiqargan", „Sen borligingni bildirib yurmoq-chi bo'lsang, sayrab yuraver" deyishlariga quloq solmaydi. Bu o'jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho'kib ketadi. Yonidagi baqalar bo'lmaganda halok bo'lishi ham tayin edi. Kech bo'lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o'quvchini o'z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o'z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

— *masal mazmunini aniq idrok etish;*

- *kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyat-larini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;*
- *allegoriyani aniqlash;*
- *masal xulosasini tahlil qilish.*

Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o'qish darsining qurilishi quyidagicha ba'ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari:

- a) masal muallifi haqida o'qituvchi hikoyasi;
- b) o'qilgan masal mazmuni bilan bog'liq suhbat;
- d) o'qilgan masalda qatnashuvchi timsollarga xos xususiyatlar haqida suhbat.

2. Masalni o'qituvchi o'qishi (magnitafon yozuvini eshitish yoki film ko'rsatish ham mumkin).


3. Masal matni ustida ishlash:

- a) masalning tuzilishi va kompozitsiyasini aniqlash (o'qish, reja tuzish va hokazo);
- b) qatnashuvchilarning xatti-harakati, fe'l-atvori, xarakteriga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o'qish, so'z bilan va grafik tasvirlash, savollarga javob berish);
- d) masalning aniq mazmunidan kelib chiqib, undagi asosiy fikrni belgilash;
- e) krossvordlar, ta'limiy o'yinlar, topishmoqlardan foydalanib, masal mazmuni va g'oyasini o'zlashtirish.

4. Allegoriyani ochish.

5. Axloqiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan shunga o'xshash hodisalarga taqqoslash



II BOB. Boshlang'ich ta'limda maxsus folklor janrlarni o'rganish

2.1. MAQOL O'QITISH DARSINI TASHKIL ETISH

Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Yer haydasang - kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda“, „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining“ kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovuslilar takrori bo'ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo'lgan ajoyib so'z ustalarining o'lmas satr va hikmatli so'zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A.Navoiyning „Mahbub ul-qulub“ asarida aytgan bir qancha hikmatli so'zlari shular jumlasidandir: „Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur“, „Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz“ va boshq.

Ma'lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o'rganishda ham bu bosqichlarga e'tibor qaratish kerak.

1-2-sinflar maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi bo'lsa, savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichidir.

Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda o'quvchilarga maqollar o'qitiladi, ma'nosini bilganlaricha izohlab berishlari so'raladi. O'quvchilar javobini o'qituvchi to'ldirib, misollar bilan dalillab beradi.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug'atlar (Masalan: Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovning „Hikmatnoma" (o'zbek maqollarining izohli lug'ati, Toshkent, 1990) dan uning ma'nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo'lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o'qituvchi „Maqollar to'plami" va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmochi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamochi bo'ladilar.

1-2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-sinf darsligida bo'lim yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarda ham maqollarni o'rganishga katta e'tibor berilgan. Masalan, „Xalq o'giti-baxt kaliti" bo'limidagi savol-topshiriqlarda „Rostgo'ylik haqidagi maqollardan ayting", „Odob insonga husn" bolimida „Qanoatda-barakat" maqolining ma'nosini tushuntirib bering", „Ko'klam-yashnadi olam" bo'limidan so'ng „Bilim olish haqidagi maqollarni ayting" kabi vazifalar berilgan. Har bir bo'lim yuzasidan berilgan vazifalarda u yoki bu maqolni o'rganish ko'zda tutilgan.

1-2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi" da „Ona yurtning - oltin beshiging" maqoli berilgan. Mana shu maqol matni ustida ishlaganda, „Yurt" so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?", „Maqolda ona yurt nimaga tenglashtirilayapti?", „Beshik oltin bo'ladimi?" kabi savollar berish yo'li bilan o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlanadi. Bundan tashqari, „Eling senga cho'zsa qo'l, Unga doim sodiq bo'l" maqolining ma'nosini tushuntirishda shu bo'limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish lozim. Masalan, „Jar" sport kompleksi sizning sog'lom o'sishingiz uchun yaratildi. Maktabda bepul bilim olyapsiz. Shunga javoban siz nima qilishingiz kerak?" kabi. Shu maqolning badiiy til vositasi ustida ishlashda „Qo'l cho'zsa" deganda nimani tushundingiz?" kabi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilish va uning qanday ma'noda kelayotganini aytib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi.

2-sinfda „Ish ishtaha ochar" matnida'n keyin: „Ish ishtaha ochar, Dangasa ishdan qochar", „Kuch birlikda" matnidan keyin „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqollari

keltirilgan. Bu maqollardan matn o'rganib bo'lingach, asarning g'oyasini ochishda va xulosa chiqarishda foydalaniladi. Su tarzda maqol mazmuni ham ochiladi. Maqol tili ustidagi 1-sinfda uyushtirilgan ishlar 2-sinfda ham davom ettiriladi. Maqol ustida ishlash orqali o'quvchilar uning yaratilishi sababini, oddiy gapdan farqini bilib oladilar.

1-sinfda maqollarni to'g'ri o'qish va yod olishga e'tibor ko'proq qaratiladi, 2-sinfda esa o'quvchilardan matn mazmuniga mos maqollar aytishni talab qilish mumkin.

3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur. Shuningdek, 3-sinf "O'qish kitobida" "Mehrijon sayli" matnidan keyin Mehnat baxt keltirar, Mehnating zabu-ziynating, Mehnat qilgan xor bo'lmas kabi maqollar keltirilgan bo'lib, bu maqollar orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik tuyg'ulari shakllantiriladi.

3-4-sinflarda „Xalq og'zaki ijodi" bo'limi tarkibida „Maqollar" mavzusi alohida o'rganiladi. Bu mavzuni o'rganishda maqolning kelib chiqishi, yaratilishi haqida dastlabki elementar ma'lumotlar beriladi. Bunda maqollar xalqning uzoq yillik hayotiy tajribasi asosida vujudga kelganligi, tarbiya vositasi sifatida har bir xalqning milliy ma'naviyatining shakllanishida muhim vosita bo'lishi haqida dastlabki tushunchalar beriladi.

Maqollar mavzular bo'yicha guruhlab o'rgatiladi. Masalan, 4-sinf „O'qish kitobi"da maqollar „Ona yurtning — oltin beshiging", „Eldan ayrilguncha, jondan ayril", „Mehnat — baxt keltirar", „Odobing — zeb-u ziynating", „Olim bo'lsang, olam seniki", „Ko'ngil ko'ngildan suv ichar" kabi mavzular asosida birlashtirilib berilgan. O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlab o'rgatishda o'qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g'oyasini maqol bilan bog'lash kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish bilan maqollarni izohlash yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos birona hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

3-4-sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlar o'quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya'ni „Asar g'oyasiga oid maqol ayting", „Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating" kabi topshiriqlar beriladi, „Maqollar aytish musobaqasi", „Maqollar mushoirasi" kabilar tashkil qilinadi.

Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.

4-sinf yakunida maqol janrini o'rganish yuzasidan umumlashtiruvchi darsni tashkil qilish zarur. Bunda o'quvchilarga yod olingan maqollar mavzusiga qarab guruhlash ustida ish olib boriladi:

1-guruh

To'g'ri bo'lsang o'sib borib gul bo'lasan,
Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.

2-guruh

Tadbir bilan mushkul ish oson bo'lar,
Tadbirsizning holi tang bo'lar.

1-guruh

Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.

2-guruh

Yaxshi ko'rgan do'stingdan
Joningni ham ayama.

1-guruh

Maslahatsiz ish
Keltirar tashvish.

2-guruh

Kitob-bilim manbai.

1-guruh

Bilagi zo'r birni yiqar,
Bilimi zo'r mingni

2-guruh

Oltin-kumushning eskisi bo'lmas,
Ota-onaning bahosi bo'lmas.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o'rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o'qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so'zlarning ma'nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g'oya bilan aloqasini ochish.

6. Matn mazmuni va g'oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo'yicha guruhlash.

Xalq maqollari:

Toma-toma ko'l bo'lur,
Tommay qolsa cho'l bo'lur.

Deyilishining ma'nosini hayotiy misollar bilan bolalarga anglatish, tomchi suv bir o'simlikni qurib qolishdan asrashi, e'tiborsizlik oqibatida bekorga oqib yotgan jo'mraklarni burab qo'yish, tejalgan suvlar necha yillar o'simlik, daraxtlarning o'sishini ta'minlashi mumkinligini, bu ishda, ayniqsa, bolalarning kattalarga yordami muhim ekanligini tushuntirish vazifamizdir.

O'quvchilarga o'tmish haqida hikoyalar aytish oddiy pand-nasihatlardan avzaldir. Bobo, buvilar aytgan quyidagi durdona so'zlar bolalarga ijodiy ta'sir etadi: "Suvga also tupurmang, gunoh bo'ladi. Oqar suvga musur narsalar tashlamang, bu ham gunoh bo'ladi. Undan odamlar ichadilar". Donolar aytishgan.

Suvsiz hayot bo'lmas,
Mehnatsiz rohat.

MAQOL O'RGANISH DARSINI NAMUNASI

Mavzu. Xalq hikmatlari.

O'quv material. Maqollar.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini to'liq anglab yetish malakasini oshirish. 2. Maqollar orqali o'quvchilar on-giga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko'ngillik tuyg'ularini singdirish. 3. O'quvchilarni ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o'z nutqida maqol-lardan foydalanishga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim bemo'vchi, maqol o'qish darsi.

Darsning borishi

I. Da'vat bosqichi. Maqsad: o'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otish, maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Metod: Suhbat metodi.

O'qituvchi xattaxtaga quyidagi maqollarni yozib qo'yadi: „Birlash-gan o'zar, birlashmagan to'zar“, „Awal o'yla, keyin so'yla“.

O'qituvchi: Abdulla Avloniyning „Yaxshilik yerda qolmas“ hikoyatini bilasizmi?

Xattaxtaga hikoya mazmuniga mos rasmlar ilinadi.

O'qituvchining hikoyasi: „Yaxshilik yerda qolmas“

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho'l bo'lib ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga etdi. Buni bir kabutar ko'rib, ariga rahmi kelub, darhol bir cho'pni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho'pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidani tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtni g'animat bilib, uchib ketub, o'limdan qutildi.

Topshiriq. Xattaxtadan siz tinglagan hikoyaga mos maqolni topib, belgilang. (O'quvchilar „BMashgan o'zar, birlashmagan to'zar“ maqol ini belgilaydilar)

- Qolgan maqollarga mos qanday hikoya, ertaklar o'qigansiz? („Bilim - aql chirog'i“ maqoli mazmuniga mos „Ilm afzal“ ertagini o'qiganmiz)

— Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? („Dono fikr“ deb atash mumkin.)

— Bugungi darsda nimalarni o'rganar ekanmiz?

— Maqollar nima haqida boiadi? Ular nima maqsadda yaratiladi? O'quvchilar javobi to'ldirib, umumlashtiriladi.

Nazariy ma'lumot. Maqollar - xalqning hikmatli ifodalari, hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan dono fikrlarining ixcham shakli. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Maqollar ona-Vatanni sevishga, uning har bir qarich yerini asrashga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, to'g'ri so'z bo'lishga, yaxshi odob va olijanob xulqli bo'lishga chaqiradi.

II. Anglash bosqichi. Maqsad: maqollarni ifodali o'qish, maz-mimini misollar bilan ochib berishga o'rgatish.

Metod: Suhbat, guruhlariga bo'linib ishlash.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uchun ma'lum mavzudagi maqollarni o'qib o'rganish topshiriladi.

1. Topshiriq. Ifodali o'qish, mashqi o'tkaziladi. Bunda guruhdagi har bir ishtirokchi bittadan maqolni ifodali o'qib beradi.

2. Mustaqil ish. O'quvchilar o'qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikr-ning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, „Elidan ayrilgan yetti yil yig'lar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar“ maqoliga Bobur haqidagi „Hidi, tilimi va mazasidan“ asarini misol qilib keltirish mumkin.

Savol-topshiriqlar beriladi:

— Darslikdan „El boshiga tushgan ish, Erboshigatushgani“ maqoliga mos asarni eslang. Shu maqol qaysi asar g'oyasiga mos keladi?

— „Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar“ maqoliga qaysi asar g'oyasi mos? („Mardlik va aql yorug'ligi“) va hokazo.

3. Maqollar yuzasidan rebus yechish.

1) [oltin rasmi] [o't rasmi]da bi![in rasmi] [ari rasmi] (rd), [odam rasmi] — [mehnat qilayotgan kishi rasmi]da.

2) [ko'z rasmi] (k)i [100] sizning [ko'z rasmi] (ks)i [tuz]siz.

3) Bol[ari rasmi] (rg) [to'r rasmi] (tz) [l]ni yi[qor rasmi](oa), [bol] (oi)imi [bo'r rasmi] (bz) [1000]ni.

III. Fikrlash bosqichi. Maqsad: o'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash, nutqda maqollardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Metod: Aqliy hujum, suhbat metodi.

1. Aqliy hujum.

— Qaysi mavzulardagi maqollarni o'qidingiz?

— Maqollar qanday paydo bo'lgan?

2. Maqollardan yod aytish musobaqasi.

1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan ayting. 2-guruh. Vatanparvarlik haqidagi maqollardan ayting. 3-guruh. To'g'riso'zlik haqidagi maqollardan ayting. 4-guruh. Do'stlik haqidagi maqollardan yod ayting.

3. Mustaqil ijodiy ish.

Har bir guruhga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birga-likda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O'qituvchi guruhlariga quyidagi maqollarni bo'lib berishi mumkin:

1) Hamjihatlik — davlat, Yolg'izlik - kulfat.

2) Ilmi yo'qning ko'zi yumuq.

3) Odobli — elda aziz.

4) Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda.


Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqea tarzida yozish bo'yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, „Odobli — elda aziz“ maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho'xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo'l cho'zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni „odobli bola ekan“ deyishdi. Odiljon „Odobli — elda aziz“ ekanligini bilib oldi.

Ushbu topshiriq uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Bugungi maqollarni o'rganish darsi sizga yoqdimi?
 - Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o'ylaysizmi? Ular qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?
 - Siz bugun o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
 - O'qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?
5. Guruhlar to'plagan ballarni e'lon qilish. O'quvchilarni rag'batlantirish.
 6. Uyga vazifa. Maqollarni ifodali o'qish va yod olish. Darslikdan o'qilgan ertaklar mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish.



Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo'llanilgan. 1—2-sinf „O'qish kitobi" da topishmoqlar ko'proq, har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o'zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi" da „Kitobga mehr" matni ostida „Qat-qat qatlama, Aqling bo'lsa tashlama" topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o'qish darsliklarida „Topishmoqlar" mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi. 2-sinf „O'qish" darsligida topishmoq javoblari ularning ostiga yozib qo'yilgan yoki rasmlar orqali berilgan.

- Osti tosh, usti tosh
Oʻrtasida jonli bosh. (**Toshbaqa**)
- Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar,
Doston oʻqir, gʻalvir toʻqir. (**Oʻrgimchak**)
- Toʻrttir uning oyogʻi,
Temir mixli tuyogʻi.
Manzilga yetishtirar,
Toshdan qattiq tuyogʻi. (**ot**)
- Yorugʻi bor, dovrugʻi bor,
Oʻzi yoʻq, ovozi bor. (**Momaqaldiraq**)

3-4-sinflarga oʻtgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib oʻquvchilar topishmoqlar ustida ishlash koʻnikmalarini hosil qilgan boʻladi.

Topishmoqlar bolalar shoirlari tomonidan ham yaratilib kelinmoqda. Bunday topishmoqlar shoʻx, qiziqarli boʻladi. Masalan, 4-sinf „Oʻqish kitobi“ da „Buni toping, qizlarim“ (Gʻ. Gʻulom) topishmoqlari keltirilgan.

Oʻtda yonmaydi,
Suvda botmaydi.

Ayoz bobo novvot sotdi,
Olgan edim qoʻlim qotdi.

Osmondan par tushadi,
Par emas zar tushadi.

Eritadi muzni
Qamashtirar koʻzni.

“Chiq-chiq” ishlab tolmaydi,
Tunda uxlab qolmaydi.

Pichoq kessa qon chiqar,
Poʻchoq ketsa don chiqar.

Bolalarni nutqini oʻrgatishda topishmoqlar alohida oʻrin tutadi. Maʼlumki, topishmoqlar narsa yoki hodisalarning qisqacha taʼrifi boʻlib hisoblanadi. "Topishmoq, — deb yozadi adabiyotshunos M. Abdurahmonov, — narsa yoki voqelik tushunchasini ongli ravishda yashirishga, sir tutishga asoslangan kichik poetik asardir."

Topishmoqlarda insonning turmushi bilan bogʻliq boʻlgan, uning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, buyumlar, oʻsimlik va hayvonot dunyosi kabilar taʼriflanadi. Koʻpincha topish-

moqlarda narsa va hodisalarning hajmi, shakli, rangi, tovushi, mazasi, harakati kabi belgilari beriladi.

Topishmoq bolalarni obrazli va aniq soʻzlashga oʻrgatishni osonlashtiradi. Topqirlik, aqliy faollik kabi holatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktab yoshidagi bolalar uchun tanlangan topishmoqlar sodda, qisqa va tushunarli boʻlishi kerak. Shu bois topishmoqlarni tanlashda oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini, ayniqsa, oʻzga tilni oʻzlashtirish imkonini hisobga olishi lozim.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun tanlangan topishmoqlarda narsa va hodisalarning eng muhim belgilari ifodalanishidan unumli foydalanish zarur. Masalan, hayvonlar haqidagi topishmoqlarda bunday belgi ularning ovozi hisoblanadi:

Vov-vov deydi, baqiradi,
Tugʻishganin chaqiradi. (It)

Topishmoqlarni tanlashda, albatta, bolaning tarbiyasi va yoshi hisobga olinishi kerak. Chunki umrida eshitmagan yoki koʻrmagan narsasi haqida aytilgan topishmoqni bola hech qachon topa olmaydi. Shuning uchun ham topishmoqlar asosan, nomi oʻzlashtirib olingan narsa va hodisalar haqida boradi. Topishmoqlar orqali bolalarning mavjud bilimlari mustahkamlanadi.

—Topishmoqlar oʻqish darsi mashgʻulotida oʻtilayotgan mavzuga ham muvofiq boʻlishi kerak. Aks holda bolaning diqqati chalgʻiydi va koʻzlangan maqsadga erishish qiyin kechadi. Topishmoqlar ustida quyidagi tarzda ish olib borgan maʼqul: topishmoqda koʻrsatilgan narsa va hodisa belgilarini tushunib olish, yaʼni tahlil qilish;
—bu belgilarni bir-biriga taqqoslash va umumlashtirish;
- aniqlangan belgilar asosida xulosa chiqarish, yaʼni topishmoqning javobini topish.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari topishmoq matni ustida ishlashda quyidagilarga eʼtibor berishi lozim:

1. Koʻpincha bolalar javob berishga shoshilib, topishmoqni oxirigacha eshitmaydi, uni har tomonlama batafsil tushunib yetmaydi. Ularning diqqati matndagi birorta belgiga bogʻlanib qoladi. Xulosani ular faqat shu yagona belgi asosida, qolganlarini eʼtiborga olmagan holda chiqaradilar. Topishmoqni topish uchun muhim boʻlgan belgi esa eʼtiborga olinmaydi. Bunday vaqtda topishmoqni topish qiyinlashadi.

2. Topishmoq yechishda uning maʼnosini bolalarning yaxshi tushunib olishiga, izchillik va tartib bilan fikr yuritishiga harakat qilish kerak. Bunda fikr yuritish tartibi quyidagicha boʻlishi mumkin:

—umumiy koʻrinishda nimani qidirishni aniqlash;

- qolgan hamma belgilarni aniqlash;
- taxmin qilinayotgan yechimni keltirish;
- aniqlangan belgilarni birlashtirish;
- xulosa chiqarish.

O'qituvchi topishmoqlarni ifodali tarzda bayon etadi, bolalar aytilayotgan narsa-buyumning hamma belgilarini eslab qolishlari uchun matnni qaytaradi. Savollar yordamida bolalarning e'tiborini belgilarga va ular orasidagi aloqaga qaratish kerak.

Bir narsa haqida turli topishmoqlar aytilishi bolalar lug'atini boyitish imkonini beradi.

Topishmoq topishni yengillashtirish uchun o'qituvchi bolalarga topishmoq yuzasidan quyidagicha savoiilar berishi mumkin:

"Toppinglar-chi, bu mevami yoki sabzavotmi?

U qaerda o'sadi?

Bu qanday faslda bo'ladi?

Bu qaysi hayvon ekan?" kabi. So'ng topishmoqni ifodali o'qib, rasmga qarab uning javobini topishni taklif qiladi. Masalan, "Stolni bezatish" o'yinida stol tasvirlangan rasm tanlab olinadi, idishlar hamda oziq-ovqat rasmlari va ular haqida topishmoqlar tayyorlanadi. Topishmoqqa javob bo'lgan rasmni bolalarning o'zlari tanlaydilar. Topishmoqni rasmga qarab topish uni topishda yordamchi savoiilar berish yaxshi samara beradish Ba'zan fasllarga bog'liq she'rlar, tez aytishlar, topishmoqlarni ham o'rgatib borish kerak. Yuqorida aytilganidek, bolalarni qiyin tovushlarni to'g'ri talafruz qilishga, topishmoqlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishga erishiladi. O'quvchilarga:

Qishin-yozin bir xil kiyimda (Archa);

U tushganda dala-qir,

Kuladi qiqir-qiqir (Yomg'ir) —

kabi kichik va qiziq topishmoqlarni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

TOPISHMOQ O'TISH DARSINI NAMUNASI

Mavzu. Topishmoqlar.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga topishmoqlarning janriy xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Ularning topishmoqni ifodali o'qish, javobini tez topish malakalarini oshirish, ziyraklikka o'rgatish.
2. O'quvchilarning muomala madaniyatini oshirish.

3. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo'llash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, topishmoq o'qish darsi.

Darsning borishi I. Da'vat bosqichi. Maqsad: o'quvchilarning topishmoq haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuga qiziqish uyg'otish. **Metod:** suhbat, izlanish metodi.

O'qituvchi xattaxtaga osmondagi yulduzlar, yong'oq, yer yong'oq, arra rasmlarini ilib qo'yadi va quyidagi topishmoqni yozadi: Tunda ko'rib, cho'g' deysan, Tongda ko'rib yo'q deysan. Savol-topshiriqlar beriladi:

— Shu rasmlar ichidan topishmoqning javobini toping.

— Qaysi so'zlar orqali topishmoqlarning javobi „yulduz“ eka-nini bildingiz?

Xattaxtaga 2-topishmoq yoziladi: Qo'shaloq tovoq, Ichi toia yog'.

— Qaysi belgilariga ko'ra topishmoqning javobini topdingiz? 3-topishmoq yoziladi:

Pilla kabi bo'g'indor, Har bo'g'inda mag'zi bor.

— Yer yong'oqning qaysi belgilari topishmoqda keltirilgan?

4-topishmoq:

Og'zi yo'g'-u tishi bor, Duradgorda ishi bor.

— Javob qaysi so'zlar orqali topdingiz? O'qituvchi:

— Topishmoqlarni topishda sizga nimalar yordam berdi?

- Topishmoqda narsaning belgilarini ifodalovchi so'zlar bo'ladi.

— Topishmoqlarda ko'pincha kim?, nima? so'zlariga javob bo'ladigan so'zlar yashirinadi.

2. Topishmoqlar haqida ma'lumot berish. O'qituvchining hikoyasi:

— Topishmoq matnida narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi. Topishmoqlar qadimda „jumboq“, „top-top“ deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

II. Anglash bosqichi. Maqsad: darslikda berilgan topishmoqlar bilan tanishtirish, mustaqil o'qishga, topishmoqlar yuzasidan o'zaro muhokama qilishga o'rgatish.

Metod: mustaqil ish, krossvord yechish, suhbat metodi.

1. Topishmoqni ifodali o'qish va javobini topish.

2. Savol-javob o'tkazish:

— Birinchi topishmoqning javobi nimaga o'xshatilgan? (G'o'zaga)

— Tungi osmon nimaga o'xshatilgan? (ko'k ko'ylakka)

— 2-topishmoqda oy nima deb ta'riflangan? (patir)

— 3-topishmoqda karamni qaysi belgilariga ko'ra topdingiz? (Ka-ramning qavat-qavat bargi qat-qat to'nga o'xshatilgan)

3. Krossvord yechish.

O'qituvchi krossvordni vatmanga oldindan quyidagicha tayyorlashi mumkin: krossvord savoUari topishmoqlar ko'rinishida bo'ladi. Sinfni 3 guruhga boiib, har bir guruhga 1 tadan krossvord yechish uchun beriladi. Bu usul bolalarning topishmoqni tez topishga ishtiyoqini oshiradi.

1-guruh uchun krossvord:

Bo 'yiga

1. Keragida suvga o'tasan Qimirlashin poylab yotasan.
2. Kasbi doim taqir-tuqur, Qayda ilon ko'rsa cho'qir.
3. Birlashtirib kiyimni Issiq tutadi sizni.

Eniga

4. Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
5. Katta oppoq dasturxon Yer yuzini qoplagan.
6. Og'zi yo'g'-u, tishi bor, Duradgorda ishi bor.

Javoblari:

1. Qarmoq. 2. Laylak. 3. Tugma. 4. Shamol. 5. Qor. 6. Arra.

2-guruh uchun krossvord:

Bo 'yiga

1. Tikuvchimas, Bichuvchimas, Ignasi ancha ekan.
2. Kundalik tarix o'zi Har yerda uning so'zi.
3. Bir onadan yuz bola, Yuzovi ham bo'z bola.

Eniga

4. Uyning shiftida ini, Kuylab berar har kuni. Bahorda kutib olib Kuzatamiz kuz uni.
5. Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q.
6. Uzun terak, ichi kovak. **Javoblar:**

1. Tipratikan. 2. Gazeta. 3. Uzum. 4. Qaldirg'och. 5. Tarvuz. 6. Qamish.

3-guruh uchun krossvord: Bo 'yiga

1. Pishirsang osh bo'lur, Pishirmasang qush bo'lur.
2. Gulsiz meva qiladi, Ko'p yesang — til shiladi: G'ir-g'ildirak oy kulcha, Bu nima, kim biladi?

3. Chopsa chopilmaydi, Ko'msa ko'milmaydi.

4. Bodom kabi yaprog'i, Sollanadi butog'i, O'zi shirin, tukligina, Mazasi ham totligina.

Eniga

5. Ikki ajib qulog'i bor: Biri tinglar, biri so'zlar.
6. O'zi qizil, go'zal biram, Qirga yozar qizil gilam.
7. Pak-pakana bo'yi bor, Yetti qavat to'ni bor.

Javoblar:

1. Tuxum. 2. Anjir. 3. Soya. 4. Shaftoli. 5. Telefon trubkasi. 6. Lola. 7. Piyoz.

III. Fikrlash bosqichi.

Maqsad: Darslikdagi savol-topshiriqlarga javob olish orqali egal-langani bilimlarni aniqlash, o'yinlar orqali ijodiy izlanish ko'nikmasini shakllantirish.

1. Darslikdagi savol va topshiriqlar ustida ishlash:

- Topishmoqlarni kim yaratgan?
- Topishmoqlar qadimda nima deb nomlangan?
- Topishmoqning qanday foydasi bor?
- O'zingiz qanday topishmoqlar bilasiz?

2. O'quvchilar bir necha qatorlarga ajratilib, o'yin uyushtiriladi: qator boshliqlari o'quvchilarga biror narsa rasmini beradi, o'quvchi rasmga oid topishmoq aytadi. Bir o'quvchi aytolmasa, orqadagi o'quvchiga uzatadi. O'quvchilarning o'zlariga „Shunga doir topishmoqni o'zingiz to'qishingiz ham mumkin" deb aytiladi. Qaysi qator topishmoqni birinchi aytsa, o'sha g'olib sanaladi.

3. Uyg'a vazifa. Darslikda o'qilmagan yangi topishmoqlar topib, daftarga yozib kelish.
4. O'quvchilarni rag'batlantirish va darsni yakurtlash.

Tez aytishlar ma'lum so'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan, o'qish sur'atini oshiradigan janr hisoblanadi. Shu sababli 1-sinfda ko'pgina tez aytishlar keltirilgan. Masalan, „Botir bbtmas botqoqqa", „Qobil qozonda qovurdoq qovurdi", „Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?", „Olim oldidagi oltita olmani oldi" va boshq. 2-sinfda esa quyidagi tez aytishlar keltirilgan:

Qobil qahraton qishda qishloqda qishladi.

Qahraton qishda Qobil qishladi.

Bu tez aytishni o'rgangandan keyin **qish, qor, sovuq, muz, yax, yaxmalak, sumalak, ayoz** so'zlari ishtirokida hikoya tuzish o'quvchilarga topshiriladi. O'quvchilar quyidagicha hikoya tuzishlari mumkin.

Qish keldi. Kunlar sovidi. Qor yog'a boshladi. Suvlar muzladi tarnovlardasumalaklar paydo bo'ldi. Biz bolalar yaxda yaxmalak ucha boshladik. Ayoz bobo oynalarga gul solib ketdi.

Bunday hikoyalarni tuzish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyati shakllanadi, dunyoqarashi kengayadi, og'zaki nutqi oshadi.

Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq.

Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zichoqnikimi?

Shuningdek 3-sinfda ham tez aytishlar keltirilgan:

Qishda qattiq qattiq qotib qolibdi.

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

San'at saroyi – saroylarning sarasi.

Salimning sadadagi sap-sariq sa'vasi sahar sayraydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshlang'ich sinf darsliklariga o'quvchilar yoshiga mos, mavzular bo'yicha tanlab olingan,

Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ongli ravishda ta'lim metodikasiga asoslanadigan "tilni sezish" shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, ikki nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Tilni o'rganish jarayonida bolalarni turli xil rollarni bajarishga, bir-birlari bilan gaplashishi, o'yinchoqlari bilan muloqotda bo'lishga, o'z ismini va otalarining ismini aytishga, boshqa bolaning ismini so'rashga o'rgatib borish zarur. Bu jarayonda bolalarning o'yin mashqlarini bajarishi orqali lug'at boyligi o'sib borishi bilan birga, so'zlarni bir-biriga moslashtirish, ularni o'z o'rnida qo'llay bilish malakasi o'sadi.

Bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda bolalar adabiyoti ustida ishlash, shubhasiz, yaxshi natija beradi. Boshlang'ich sinflarda ayrim bolalar nutq madaniyati boshqa bolalarga qaraganda birmuncha yaxshi bo'ladi. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladilar, savollarga qiynalmay, erkin javob beradilar. Lekin ko'pchilik bolalar nutqida ba'zi nuqsonlar uchrab turadi. Masalan, s, z, sh, k, ch, b, p, g, j, r kabi undoshlar talaffuzida bu ko'proq seziladi. O'qituvchi bolalar bilan ishlashda shunday nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berishi lozim. Buning uchun turli usul va vositalardan foydalanish mumkin. So'zlarning talaffuzi ustida maxsus qo'shimcha ish olib borilishi lozim. Buning uchun mashg'ulotning o'zi yetarli emas. Mashg'ulotdan tashqari sayr paytida, didaktik o'yinlar o'tkazilayotgan vaqtda bolalar bilan yakka tartibda ishlashga ham to'g'ri keladi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda quyidagi mashqlarni qo'llash yaxshi samara beradi:

1. So'zlarni bo'g'in va tovush tomondan tahlil qilish.

2. Bo'g'inlardagi harflarning tovush tomondan to'g'ri talaffuz qilinishiga e'tibor berish, ya'ni fonematik eshitishni rivojlantirish.

Bu bolalar talaffuzida qiynalayotgan tovushlarning paydo bo'lish o'rni og'iz bo'shlig'ida hosil bo'lishiga (artikulyatsiyaga) diqqat qaratishni taqozo etadi. Masalan, r undoshi tilning orqa tanglayga tegib, tovush paychalarining titrab chiqishi natijasida hosil bo'lishi, b undoshi ikki labning mahkam jipslashuvi natijasida o'pkadan chiqayotgan havoning portlashidan hosil bo'lishini amaliy ko'rsatish zarur. Talaffuzi qiyin tovushlarni biror hayvon yoki parrandalarning ovozigacha taqlid qilish va uni takror-takror mashq qilish ham yaxshi natija beradi.

— Bolalar, qurbaqa qanday sayraydi?

— Qurbaqa "qur-r, qur-r" deb sayraydi.

— Kechqurunlari chigirtkalarining ovozini eshitganmisiz?

— Qishda kunlar isib qolgan vaqtda qarg'alar qanday ovoz beradi?

— Traktor yurganda qanday ovoz chiqaradi?

"Sh" tovushining to'g'ri talaffuzini o'rgatish uchun:

— Hon sudralganda qanday ovoz chiqaradi?

— Vish-vish-vish.

Ba'zan buyumlarning nomini takror-takror aytiriladi: shar, arra, choynak, cho'mich, chaqich kabi. Shuningdek, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishda tez aytishlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, s, sh, g undoshlarining to'g'ri talaffuzi uchun, avvalo, quyidagicha mashqlarni o'tkazish lozim:

So-so-so-so Sodiq, sochiq, somon.

Sa-sa-sa-sa sa'va, sariq, sayr.

Sha-sha-sha-sha sharshara, Shahlo, shaqildoq.

Sho-sho-sho-sho sholi, oqshom, sholg'om.

Ra-ra-ra-ra rasm, randa, raketa.

Ro-ro-ro-ro rom, rohat, rost.

Bu mashqlarni bolalar o'qituvchi bilan birgalikda shoshilmay, bo'g'iniarni ifodali qilib aytadilar. Keyinchalik mazkur bo'g'inlar qatnashgan so'zlarning to'g'ri talaffuzini mashq qiladilar. So'ngra tez aytish mashqiga o'tish mumkin:

Sodiq sochini sochiqqa artdimi,

Sodiq sochiqqa sochini artdimi?

Saodat soatni soatsozga sozlatdi

Shahlo shaqildoqni shoshib shaqillatdi.

Tohirning traktori tog' orqasida tirilladi.

Tez aytishni dastlab asta-asta aytib, keyin bir nafasda necha marta ayta olishga e'tibor qaratiladi. Tez aytish jarayonida o'qituvchi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi, tovushlarni

bir-biridan farqlashlariga e'tibor berishi, bolalar nutqini doim kuzatib borishi va xatolarni tuzatib borishi lozim. Boshqa millat bolalarining ham davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallashlariga harakat qilishi, tilimizga muhabbat uyg'otishi zarur.

Bola zerikmasligi, toliqmasligi uchun o'qituvchi albatta belgilangan vaqtda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazishi kerak. Bu bolalarni charchashdan saqlaydi, ongini rivojlantiradi, nutqini faollashtiradi.

Tez aytishlar

O'zim uzum uzib yedim. -z-m.

Olma shoxida olmaxon, Olmaxonni olma Olimxon. -m-l.

To'lqin turpni tunda to'pladi. -r-t.

Bo'ri boqqa, Soqi toqqa bordi. -q-t.

Jo'ja cho'chib go'ja cho'qir. -ch-j.

Bir tup tut, tut tagida turp, Tut turpni turtib turibdi, turp tutni turtib turibdi. -t-r.

Sora allalaydi, Rashid arralaydi. -r-l.

Hashar — hashardan shahar yashar. -sh-r.

Bolalar bilan tez aytishlar mashq qilinganda shoir va yozuvchilarning asarlaridan, xalq ertaklari va maqollardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda, to'q ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, yo'lbars o'kirar ekan, xo'roz qichqirar ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Ana shunday zamonda qora tovuqdek qaqillagan bir kampir bo'lgan ekan".

Shuningdek, quyidagicha badiiy asarlar matnidan foydalanib ham mashqlar o'tkazish mumkin:

"Bir boy bor ekan,

uning oti Jomboy ekan,

o'zi juda boy ekan,

bir choynakda aynab qolgan choy ekan,

yomg'ir yoqqanda bulutlar orasidan mo'ralab turgan oy ekan,

suv o'tmagan soy ekan,

birov minmagan toy ekan,

kigiz ko'rpasi yo'q,

birov yotmagan joy ekan,

hech kim ichmagan choy ekan,


ana shunday dong'i ketgan boy ekan".

Bolalar adabiyoti bilan ishlashda, o'qilgan asardagi talaffuzi quyin bo'lgan so'zlarni o'rgatish bilan ham, kundalik turmushda qo'llanadigan so'zlarga diqqatlarini qaratish bilan

ham ularning lug‘at boyliklarini kengaytirib borish mumkin. Asar till ustida ishlashda muallif tomonidan qo‘llangan ko‘p ma‘noli, ma‘nolari bir-biriga yaqin hamda qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar, ayrim so‘z birikmalari bilan ishlash nutq o‘stirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunday so‘zlar ustida ishlash bilan bolalar yangi bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Ba‘zan fasllarga bog‘liq she‘rlar, tez aytishlar, topishmoqlarni ham o‘rgatib borish kerak. Yuqorida aytilganidek, bolalarni qiyin tovushlarni to‘g‘ri talafuz qilishga, tez-aytishlar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga erishiladi.

Ko‘proq tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o‘rganish boshlang‘ich sinf-larda dastlab har bir darsda amalga oshirilib boriladi. Alohida dare sifatida o‘rganishda esa o‘qituvchilar turli usullardan foydalanishlari mumkin.



Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishini, o‘zlashtirish darajasini ko‘taradi.

Milliy istiqlol sharofati bilan ona tili ta‘limini takomillashtirish davom etmoqda. Ona tili ta‘limidan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga tayyorlash ekan, so‘z boyligini oshirish birinchi galdagi vazifa sanaladi. Shu maqsadda biz “Har xil janrdagi asarlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish” yo‘llarini ishlab chiqdik va dars o‘tish namunalarini keltirdik. Ishimiz davomida quyidagi to‘xtamlarga keldik:

1. Matn badiyatini tahlil etish asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati o‘stiriladi.
2. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarning adabiyotga bo‘gan qiziqishini orttiradi.
3. O‘qish darslarida ta‘limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

4. O'quvchilar nutqini o'stirishda ertaklar ustida ishlash yaxshi vosita bo'la oladi. Chunki bola tabiatga yaqin, uni yangi olamga olib kiradi. Ertak tinglab, bolalar fikran undagi hamma voqea va hodisalarni chuqur his etadilar, ertak qahramonlari bilan harakat qiladilar. Ertaklar orqali bolalar o'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishadilar.


5. Xalq yaratgan maqollarning ma'nosi, tuzilishi, vazifasini o'quvchilarga tanishtirib borish ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish bilan birga, biror voqea-hodisa haqida tez hukm chiqara olishga va teran fikrlashga undaydi.

6. O'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslar tashkil etilsa, o'quvchilarning darsni o'zlashtirishlari osonlashadi, fikrlashi kengayadi, dunyoqarashi shakllanadi, o'z fikrini, his-tuyg'usini ona tilining imkoniyatlari doirasida ifodalash vazifalarini bajara oladigan darajadagi kelajak kishisi bo'la oladi.

7. Bolalar lug'atini boyitish, nutqining ravon, silliq va ta'sirchanligini ta'minlashda xalq og'zaki ijodi ustida ishlash, shubhasiz, yaxshi natija beradi.

8. Har xil janrdagi asarlarni o'rganishda undagi ayrim so'z va iboralar bilan ishlash, bir tomondan, asar mazmunini oson hamda toliq o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, bolalar lug'atini boyitish, til hodisalarini anglash ko'nikmalarini tarbiyalaydi, so'zlarni fonetik jihatdan o'zlashtirishga zamin bo'ladi.

Ayni paytda, zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondashuvlar asosida o'qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo'lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul, metod va vositalarni xilma-xillash ta'lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish–bular hammasi ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya'ni oxiri yo'q, deyiladi. Shunday bo'lgach pedagogik texnologiyalar ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko'p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo'lsa – shunchalik kamdek tuyulaveradi. O'qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir. Tadqiqot ishimiz davomida biz metodist-olimlarning ta'lim vositalaridan foydalanish haqidagi barcha nazariy va amaliy qo'llanmalarni o'rganib chiqdik. Ulardan ishimiz davomida foydalanishga harakat qildik.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –Toshkent. 2011. 21-yanvar.
4. Ona tili. Umumiy ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi“ Ta'lim taraqqiyoti” axborotnomasining 1-maxsus soni. T. “Sharq” 1999 y.
5. Azizxo'jayev N.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adolat, 2006.
6. Bahriyev A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2006
7. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish. Toshkent: Musiqa,2009.
8. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. “Pedagogik texnologiya asoslari”,-T.,”O'qituvchi”, 2004-yil.
9. Nurmatov M. Ifodali o'qish tugaragi. “Til va adabiyot ta'limi” 1992 yil, 1-son.
10. Ne'matov X., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. –T.1996 y.
11. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2000.
12. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. “O'zbek tili” doimiy anjumani 3-yig'inining tezislari.T.1995 y.
13. Tolipov O'., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.,Fan, 2006-yil.
14. “Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar, muammolar, yechimlar” Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.O'z.PFITI. 1999-yil.
15. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
16. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T., Sharq, 2003-yil.
17. G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. –T. 1995 y.

18. G'ulomov A. Nutq o'stirish mashg'ulotlari (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). –T. 1995 y.
19. O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish. Ilmiy asarlar to'plami. –T. O'z.PFITI -1998 y.
20. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiyalar – zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent: 2009.